

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYON JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI

SAMARQAND – 2024

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Navoiy viloyati Turizm boshqarmasi

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Turizmni rivojlantirish instituti

Qozon Federal universiteti

Tambov davlat universiteti

L.N.Gumilev nomidagi Evroosiyo milliy universiteti

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“TURIZM” KAFEDRASI

“TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYON JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

Konferensiya, O‘zbekiston Respublikasi Perezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135 sonli Qarori ijrosi yuzasidan o‘tkazildi

(2024-yil 25-oktabr)

SAMARQAND-2024

Turizm sohasini rivojlantirishda innovatsiyon jarayonlardan samarali foydalanish imkoniyatlari. / 2024-yil 25-oktabr. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, SamISI, 2024.-615 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:
S.A.Abduhamidov-kafedra mudiri, dotsent
G.R.Tursunova-kafedra dotsenti v.b.
A.Y.Talibova-kafedra o‘qituvchisi

Nashr uchun mas’ullar:
I.S.Tuxliyev-kafedra professori, i.f.d.
R.S.Amriddinova-kafedra dotsenti, i.f.n.
A.P.Maxmudova-kafedra dotsenti, i.f.f.d.
R.Hayitboyev-kafedra dotsenti v.b.

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida Turizm sohasini rivojlantirishda innovatsion jarayonlardan samarali foydalanishning nazariy-metodologik masalalari, raqamli iqtisodiyot sharoitida xalqaro va ichki turizmni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari, uchinchi renessansni shakllantirishda turizmning rivojlanishi: muammolar va yechimlar, raqamli hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanishda iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari, Navoiy viloyatida turizm xizmatlarini diversikatsiya qilish tendensiyalari bo‘yicha ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqolalar o‘rin olgan.

Professor-o‘qituvchilar, talabalar, magistrlar, tadqiqotchilar va soha mutaxassislariga mo‘ljallangan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024

5.https://cyberleninka.ru/article/n/navoiy-viloyatida-turizm-so-asini-rivozhlantirishning-izhtimoiy-i-tisodiy-afzalliklari

M.I.Daminov-SamISI mustaqil izlanuvchi

NAVOIY VILOYATI XATIRCHI TUMANDA MAVJUD TURISTIK RESURSLARDAN ICHKI VA XALQARO TURIZMDA FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYSTLARI

Аннотация: В статье даны рекомендации по могиле «Ko‘k tosh bobo» Джалолиддина Мангуберди.

Ключевые слова: Шахри Бар-Бар, Анбар, Амир Джалолиддин бин Малик Душох, 850 г. хиджры, Аль-Амир Амир Джалолиддин бин Малик ибн аль-Магфур аль-Амир Душа, первый месяц Рабиуль аль-Авваля, основателя Великого Амира Амира Султанат, Амир Джалолиддин бин Малик бин аль-Магфур Амир... (вместо точек должна быть душа) 10 числа месяца Рабиуль Аваль, 850 г. (хиджра).

Annotation: The article provides recommendations on the grave of "Ko‘k tosh bobo" Jaloliddin Manguberdi.

Keywords: Shahri Bar-Bar, Anbar, Amir Jaloliddin bin Malik Dushah, 850 Hijri, Al-Amir Amir Jaloliddin bin Malik ibn al-Magfur al-Amir Dushah, the first month of Rabi'ul al-Awwal, the founder of the Grand Amir Amir Sultanate, Amir Jaloliddin bin Malik bin al-Mag‘fur Amir... (there should be a dushah instead of dots) on the 10th of the month of Rabi'ul Awal, 850 (Hijri).

Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi Navandak qishlog‘i oldida 25-30 gektar joyni egallagan eski Navandak qabristoni joylashgan. Unda ko‘plab eski arab yozuvida bitilgan qabr toshlari bor. Lekin, afsuski, ko‘plarida yozuv o‘chib ketgan yoki toshlar boshqa joyga ko‘chirib olib ketilgan. Ulardan biri shakli va hajmi bilan Amir Temir qabri ustidagi nefrit toshiga o‘xshatib ishlangan va mahalliy aholi “Ko‘k tosh” deb atagan bir qabr toshi saqlanib qolgan. Hozir bu er ziyoratgoh joyga aylangan. Qabrtoshining aylanasi bo‘ylab arabcha yozuvlar o‘yib bitilgan. Navandak qishlog‘ida yashagan tabarruk zot-Burxonxon eshon 1998 yil ularni yozib olgan. Qabrtoshida “***Anbar Amir Jaloliddin binni Malik Dushox, 850 xijriy***”, ya’ni milodiy 1446 yil 30 iyun’ degan. Misr Arab Respublikasidan, Samarqand Davlat Chet tillar instituti "Yaqin sharq tillar" kafedrasining Arab tili o‘qituvchisi Xoshim Ismoil Aliy 2018 yil shunday o‘qidi “***Al-Amir Amir Jaloliddin ibn Malik ibn al-Mag‘fur al-Amir Dushox un birinchi rabi’ul avval oyi***” o‘qidi. Misrdan yana bir doktor Ammod professordan (telegram orqali qabrdaga yozuvlarni rasim xolida junatildi) shunday javob oldik boshlanishida qushimcha bor “***Buyuk Amir Amir Saltanat asoschisi Amir Jaloliddin ibn Malik bin al-Mag‘fur Amir.... (nuqtalar o‘rnida dushox bulsa kerak didi) rabi’ul avval oyining 10 chi 850 (xijriy)sana***”satrlar yozilgan. Bu satrlar ko‘pchilikni hayron qoldiradi. Nahotki, u Xorazm elining sheryurak o‘g‘loni Jaloliddin Manguberdiga taalluqli bo‘lsa?! Chunki qadimiy qo‘lyozmalarda, masalan Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”sida Jaloliddin Manguberdi nomi boshqacha-Jaloliddin Ibn Malikshoh deb berilgan. Nima uchun toshdagi sana Jaloliddin Manguberdining vafot etgan sanasi 1231 yil

emas, balki 1446 yil deb yozilgan. Bu savollarga Navandak qishlog‘ida faoliya ko‘rsatayotgan o‘lkashunos Karamov Isroil javob topa olgan. Uning ma’lumotiga ko‘ra, Navandak qishlog‘i tarixi uzoq davrlarga borib taqalgan.

Shahri Bar-Bar

SamDU olimlari (1966-1971 yillar V.A.Shishkin va Ya.G‘.G‘ulomovlar arxeologik ishlar olib borilgan) 1977 yilda chop etilgan “O‘zbek ensikpopediyasi” ning 9 jildi 473 betida xaritada Navandaktepa deb yozilgan shu joyda bronza davriga oid qadimgi manzilgoh topilgan, unda archa tasviri bilan bezatilgan sopol idishlar uchraydi deyiladi.



“Shahri bar-bar” tepalikdan topil sapollar

Yani bir ma’lumotga ko‘ra, Navandak qadimdan “Shahri bar-bar”, deb atalgan. Uning qadimiyligini isbotlovchi qadimiy qoldiqlar, balant tepalik bo‘lganini uning oldidagi ushbu qabriston ham tasdiqlaydi.

Qabirtoshidagi yozuvga kelsak, u haqiqatdan ham Jaloliddin Manguberdi qabr toshi bo‘lishi mumkin. Chunki Jaloliddin Manguberdi bizning davrimizdagina Manguberdi deb atala boshlangan, qadimiy qo‘lyozmalarda u Jaloliddin ibn Malikshoh deb atalgan. Toshdagi “Dushox” qo‘shimchasiga e’tibor qaratsak, Buyuk Xorazmshohlar Qutbiddin Muhammad Otsiz, Elarslon, Alauddin, Takash, Alauddin, Sulton, Muhammad (Jaloliddinning otasi) va Jaloliddinning o‘zi o‘zlarini “Dushox”, ya’ni Iskandari Soniydan keyingi ikkinchi podshoh deb atashgan.



Buyuk Amir Amir Saltanat asoschisi Amir Jaloliddin ibn Malik bin al-Mag‘fur Amir.(nuqtalar o‘rnida dushox bulsa kerak didi) rabi’ul avval oyining 10 chi 850 (xijriy) sana

Jaloliddinning qabri nima uchun u halok bo‘lgan Kavkazda yoki yurti Xorazmda emas, Xatirchi tumanidagi Shahri Bar-barda yotibdi? Bu savolga faqat Jaloliddin halok bo‘lgan davr va sharoitni tahlil qilgan holda fikr yuritish mumkin.

Ma’lumki, Jaloliddin 1231 yilda mo‘g‘il istilochilariga qarshi jang olib borayotganda Kavkaz hududida kurdlar tomonidan o‘ldirilgan. Uning qabri qaysi joyda ekanligi hozirgacha noma’lum bo‘lib kelmoqda, har holda Kavkazda ham, Xorazmshoxlar davlatining poytaxti bo‘lgan Xorazmda ham topilmagan. Jaloliddinning jangdosh do‘sti va tarixchisi Shihobiddin Muhammad an-

Nasaviyning “Siyrat as-sulton Jalol ad-din Mengburniy”[257] asari arab tilida yozilgan (asarning ikkita to‘liq bo‘lmagan qo‘lyozmasi hozirda ulardan biri 1260-yilda yozilgan qo‘lyozmasi Parij Milliy kutibxonasida, ikkinchisi Britaniyaning muzeyida saqlanmoqda) kitobida yozilishicha, “Jaloliddin kurdlar tomonidan o‘ldirilib, Turkiyada dafn etilgan, ma’lum muddat o‘tgandan keyin al-Malik al-Muzaffarning topshirig‘iga asosan Jaloliddinning mayitini vataniga olib kelishni buyuradi” degan ma’lumot mavjud. Mayitni Mayaforiqinga olib kelib ko‘mishadi degan[258]. Lekin qabr toshi Shahri Bar-barga (Shahri Bar-bar hududi Samarqandga qaragan Samarqand Xorazimshohlar davlatining markazi hisoblangan) qanday kelib qolgan buni kim qilgan va qanday amalga oshirgan?

Do‘stga sadoqat. Tarixdan ma’lumki, Jaloliddin Xorazmdan ketgach, Kavkaz hududida mo‘g‘ullarga qarshi jang olib bordi. Gohida engdi, gohida engildi. Bunday uzoq jang-u jadallar chog‘ida undan charchagan va o‘ljalar taqsimotidan norozi bo‘lgan lashkarboshilar Sayfuddin Ag‘roq, Malik A’zam, Muzaffar Maliklar o‘z qo‘shinlarini olib yurtlariga jo‘nab ketgandi. Unga sodiq lashkarboshi, Xo‘jant hokimi Temir Malikgina Jaloliddin bilan oxirigacha mo‘g‘ullarga qarshi kurashdi. Janglarda omad ulardan yuz o‘girib, do‘stining vafotidan keyin ma’lum vaqt o‘tgach, Temur Malik uning jasadini olib yurtiga qaytgan bo‘lishi mumkin. Lekin o‘sha vaqtda Movarounnahr notinch bo‘lib, mo‘g‘illar to‘da-to‘da bo‘lib izg‘ib yurgani sababli ularga qarshi kurashgan Temur Malik yashirin ravishda Movarounnahrga kirib kelgan, do‘stining jasadini Xorazmga olib borishga harakat qilgan, lekin qaysidir sabablarga ko‘ra buni amalga oshirolmay yo‘l Xorazm va Xo‘jandga bo‘linadigan joyda Shahri Bar-bar oldida dafn etib, o‘zi Samarqanddan aylanib o‘tadigan yo‘l bilan yurtiga-ya’ni Xo‘jandga qaytgan va u joyda mo‘g‘ullar tomonidan qatl etilgan.

Yana, qabr toshidagi sana-1446 yilga kelsak, u Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi.

Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlagi sa’dayn va majmaiy baxriyin”, “Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo‘shilish joyi” asarida yozilishicha, Mirzo Ulug‘bek o‘sha davrda Buxorodan qaytishda Kufin (Xatirchi tumani) qala’sida bo‘lgan. Bu davrda Movarounnahr mo‘g‘ullardan to‘liq ozod edi va uning hukmdori Ulug‘bek bu erdagi Jaloliddinning qabridan xabar topganidan so‘ng, unga bo‘lgan hurmati uchun qabr ustiga bobosi Amir Temur qabri ustidagi nefrit yodgorlikka o‘xshash qabr toshi qo‘ydirgan bo‘lishi mumkin.

Qay yo‘l bilan?

Yana bir savol-“Temur Malik jasadini qaysi yo‘l bilan olib kelgan?” degan savolga javob izlaymiz. O‘sha vaqtda Movarounnahrni Kavkaz yoki Vizantiya bilan Buyuk ipak yo‘li va uning uch tarmog‘i bog‘lab turgan. Ular janubiy markaziy va shimoliy tarmoqlar deb atalgan. Janubiy tarmoq g‘arbda

[257] Шиҳобиддин Муҳаммад ан-Насавийнинг “Сийрат ас-султон Жалол ад-дин Менгбурний” асарини таржимаси “Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти” Камол Матёқубов таржимаси Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти Тошкент 2018 12 бет.

[258] Шиҳобиддин Муҳаммад ан-Насавийнинг “Сийрат ас-султон Жалол ад-дин Менгбурний” асарини таржимаси “Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти” Камол Матёқубов таржимаси Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти Тошкент 2018 329 бет.

Vizantiya (Turkiya)dan boshlanib, Erzurum, Tabriz, Tehron, Seraxs Nishopur, Ashxobod shahri oldidagi Niso shahri va undan Marv (hozirgi Mari) orqali Erk qal'a, Gaur qal'a, Sulton qal'a, Abdullaxon qal'a va Bayramalixon qal'alari yonidan o'tib, Shahri Bar-bar oldida ikkiga bo'lingan, birinchisi Samarqand, Zomin, Xo'jandga yo'nalgan. Buyuk ipak yo'lining ikkinchi tarmog'i esa Movarounnahrning markazidan o'tgan Samarqanddan boshlanib, Shahri Bar-bar orqali hozirgi Qizilqum va Qoraqumni kesib o'tib, Kaspiy dengizi qirg'og'iga chiqqan. Dengizdan yog'och kemalarda suzib o'tib, Kavkazga chiqishgan. Uchinchi yo'l ham Vizantiyadan (Turkiya) boshlanib, Kavkazda ikki dengiz oralig'idan Kaspiy dengizini aylanib o'tib Markaziy Osiyo hududiga kirib kelgan. Movarounnahrda uning Xon yo'li deb atalgan tarmog'i bo'lib, u Samarqandga kirmay Nurota orqali shimolga Ustrushanaga, undan Sirdaryo havzasi bilan Shomga va O'trorga yurishgan. Rashiddidin al-Juvaniy (XII asr) bergan ma'lumotga ko'ra, "Xon yo'li" mashhur va ma'lum bo'lgan. Cho'l ustida joylashgan Kaltepa, Qoratepa, Qumquduq, Navoili, Dunyotepa, Otaqo'rg'on, Xonkeldi, Sultontepa, Oqtepa kabi karvonsaroylar yo'lovchilarga xizmat qilgan. Bu yo'llardan qaysi biridan Temur Malik foydalangan degan savolga, u asosan janubiy yo'ldan yurgan, deb javob berish mumkin. Chunki, shimoliy yo'l Kaspiy dengizini aylanib o'tgani uchun juda uzoq bo'lgan. Markaziy yo'l eng qisqa, lekin dengizdan o'tar joyi mo'g'illar tomonidan nazorat qilib turilgani uchun vataniga yashirin ravishda kelayotgan Temur Malik uchun xavfli bo'lgan. Shu sababli Jaloliddin Manguberdi mayitini Temur Malik Janubiy yo'ldan Niso-Marv-Muyonqol orqali olib kelgan va Xo'jand yo'lidagi shahar-Shahri Bar-bar qabristoniga qo'ygan, deb aytish mumkin.

Bularning hammasi tarixiy ma'lumotlarni tahlil qilish asosida aytilgan fikrlardir. Ehtimol, mutaxassislarning ilmiy izlanishlari bu fikrlarning to'g'riligini ko'rsatsa, vatanimiz tarixidagi yana bir jasur o'g'lonning mangu uyquda yotgan joyi aniqlanib, uning hurmati joyiga qo'yilgan bo'lar edi.

Shu bilan bir qatorda Mamlakatimizda hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagi PQ 3514-sonli "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 6 fevraldagi PQ-3509-sonli "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari, 2018 yil 29-30 noyabr' kunlari Xorazmga tashrifi chog'ida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Xorazmga turistlarni jalb qilishni kengaytirish bo'yicha topshiriqlar berdi. «Biz chet ellik turistlarni qadimiy tariximiz va qadriyatlarimiz bilan jalb qilishimiz mumkin. Lekin Xorazmning, Xivaning tarixi to'liq o'rganilmagan, uni tanishtirish bo'yicha tizim ham yo'q. Shuning uchun Xorazm tarixini eng qadimgi davrdan boshlab yilma-yil o'rganib, odamlarga sodda tilda tushuntirishni yo'lga qo'yish kerak. Muhim davrlar va voqyealar, har bir xon hayoti bo'yicha shou-rumlar tashkil etib, sayyohlarni qiziqtirish zarur. Xivaga kelgan odam katta taassurot, bilim olib ketsin, bu erda ko'proq qolib vaqtini mazmunli o'tkazsin», degan Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga

Murojaatnomasida “Afsuski, yurtimiz tarixini o‘rganishda o‘tgan davrda arxeologik tadqiqotlar etarli darajada olib borilmadi.

Shuning uchun Fanlar akademiyasining Arxeologiya va San’atshunoslik institutlari faoliyatini, oliy o‘quv yurtlari va muzeylardagi arxeologik izlanishlarni chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etish zarur.

Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, engilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak...” deb ta’kidlab o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevraldagi 120-sonli “Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to‘g‘risida” qarori qabul qilingan bo‘lib, ular asosida turli hududlarda mavjud bo‘lgan muqaddas qadamjolardan turistik maqsadlarda foydalanish turistlar oqimini ko‘payishi bilan bir qatorda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga, aholi bandligini oshirishga va tegishli infratuzilmani takomillashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagi PQ-3514-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagi PQ-3509-sonli qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29-30 noyabr’ kunlari Xorazmga tashrifidagi no‘tqi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida nutqi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevraldagi 120-sonli qarori.

6. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning “Siyrat as-sulton Jalol ad-din Mengburniy” asarini tarjimasi “Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti” Kamol Matyoqubov tarjimasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti Toshkent 2018 yil.

7. O‘lkashunos Karamov Isroil “Ko‘k tosh bobo” Jaloliddin manguberdining qabrimi? Qo‘lyozma.

8. O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi. Toshkent. 1977 yil. 9-son. 473 bet.

9. Abdurazzoq Samarqandiy “Matlagi Sa’dayn va majmai bahriyn, ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo‘shilishi” Toshkent. 1960 yil.

	КЕЛТИРИБ ЧИҚАРУВЧИ САБАБЛАР……	
I.X. SHUKUROV DJ.S.FAYZIEV Z.E.MAMARASULOV Z. SH.SUVONOV	OVQATLANISH KORXONALARIDA XIZMAT KO‘RSATISHNING PSIXOLOGIK USULLARI…	586
Ж.Б.АХТАМОВ	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННОМ УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ…….	589
ҚАДЫР ЕРҚАНАТ БАУЫРЖАНҰЛЫ	СТАНДАРТИЗАЦИЯ В ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ: ПУТЬ К УСТОЙЧИВОМУ РАЗВИТИЮ…….……	593
T.T.MUXAMMEDOV N.O RAXMONQULOVA	RAQAMLI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA IQTISODIYOTNING TURLI SOHA VA TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI…….……...…...	598
Sh.B.O‘razaliyev M.Z.Sayfullayev A.B.Miyassarov	TURIZM SOHASIDA FUNKSIYALARNING AHAMIYATI…….	602
5-SHO’BA: NAVOIY VILOYATIDA TURIZM XIZMATLARINI DIVERSIKASIYA QILISH TENDENSIYALARI		
D.X.ASLANOVA A.A.AZIZKULOV	XATIRCHIDA YASSAVIYA MURSHIDLARINING ZIYORATGOHLARI…….	604
И.С.Тухлиев С.А.Абдухамидов	НАВОИЙ ВИЛОЯТИДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАЛАБ ВА ТАКЛИФ МУВОЗАНАТИНИ ТАЪМИНЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ	606
Р.С.АМРИДДИНОВА	ПОТЕНЦИАЛ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ В РАЗВИТИИ ПРОМЫШЛЕННОГО ТУРИЗМА……	611
Р.С.АМРИДДИНОВА С.Б.ЗИЯДУЛЛАЕВА	НАВОИЙ ВИЛОЯТИ ТАРИХИЙ-МЕЪМОРИЙ ОБЪЕКТЛАРИНИНГ БУГУНГИ ҚИЁФАСИ…..	613
A.P.MAXMUDOVA	NAVOIY VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI……..	617
M.QAHRAMONOVA R.S.AMRIDDINOVA	MEHMONXONA BIZNESIDAGI TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALAR....	620
A.A.AZIZQULOV	XATIRCHI TUMANIDA SPELIOTURIZM IMKONIYATLARI…….……...…...	622
D.H.XOLMAMATOV	NAVOIY VILOYATIDA TURIZM XIZMATLARINI DIVERSIKATSIYA QILISHNING NAZARIY MASALALARI……..	624
С.А.ИСХАКОВА	СФЕРА УСЛУГ КАК ОБЪЕКТ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ…….	629
I.X.SHUKUROV DJ.S.FAYZIEV Z.E.MAMARASULOV Z.SH.SUVONOV	NAVOIY SHAHRIDAGI OVQATLANISH KORXONALARINING O‘RINDIQLAR SONINI ANIQLASH METODLARI…….…….	632
M.I.DAMINOV	NAVOIY VILOYATI XATIRCHI TUMANDA MAVJUD TURISTIK RESURSLARDAN ICHKI	635